

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2023-yil «13» 10 dagi

457 -son buyrug'i bilan

«TASDIQLANGAN»



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI**

USTAVI

Toshkent-2023

I. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetini tashkil qilish to‘g‘risida” 1992-yil 12-maydagi PF-401-son Farmoni asosida tashkil qilingan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovasiyalar vazirligining tuzilmasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-61-son qarori bilan moliyaviy mustaqillik berilgan.

2. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyingi o‘rinlarda Universitet deb yuritiladi) davlat oliy ta‘lim muassasasi hisoblanib, oliy ta‘limning asosiy va qo‘shma ta‘lim dasturlarini bajarish bo‘yicha ta‘lim faoliyati bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘quv, ilmiy-metodik va boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi hamda ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatadi.

3. Universitet o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovasiyalar vazirining buyruqlari hamda mazkur Ustavga amal qiladi.

4. Universitet bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta‘minlaydi. Shuningdek, universitet shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma‘lumotni olishni tashkil etadi.

5. Universitetda ta‘lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta‘lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta‘lim olish (sirtqi, kechki).

Qonun hujjatlariga muvofiq universitetda ta‘lim olishning boshqa shakllari ham joriy etilishi mumkin.

6. Universitet yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan budjet mablag‘larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi. Operativ boshqaruvida o‘ziga xos maxsus mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo‘yicha o‘z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o‘z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirish, zimmasiga majburiyat olishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida shaxsiy hisob raqamlariga, milliy va xorijiy valyutalardagi bank hisob raqamlariga, o‘z nomi davlat tilida ko‘rsatilgan va O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, tegishli muhr, shtamp va o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan ramzlarga hamda rekvizitlarga egadir.

Universitetning rasmiy nomi:

davlat tilida: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (O‘zDJTU);

рус тилида: Узбекский государственный университет мировых языков (УзГУМЯ);

ingliz tilida: The Uzbekistan State University of World Languages (UzSWLU).

Universitet joylashgan manzil: 100173 Toshkent sh., Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li, G-9 a mavzesi, 21- uy.

7. Universitet o'z faoliyatini davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, kadrlar buyurtmachilari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan, xorijiy hamkor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, Universitet xo'jalik jamiyatini ta'sis etishi hamda ularning ustav fondi (ustav kapitali)da ishtirok etishi mumkin emas.

II. Universitetning asosiy maqsadi, vazifalari va funksiyalari

9. Har tomonlama rivojlangan, o'z Vatani fidoyisi, davlat va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini his qiluvchi, mamlakat kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, qonunlarga so'zsiz itoat etuvchi hamda xalqaro ta'lim maydonida raqobatbardosh, yuqori malakali zamonaviy iqtisodiyotning tegishli sohalari bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarni va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash Universitetning asosiy maqsadi hisoblanadi.

10. Assosiy maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilar Universitetning asosiy vazifalari hisoblanadi:

zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlar tayyorlashni ta'minlash;

iqtisodiyotning tegishli sohalari bo'yicha talabalarning fundamental bazaviy, shuningdek, amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydigan o'quv reja va dasturlar asosida bakalavrlar, magistrlar tayyorlash;

ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, talabalarda tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, innovasion, axborot-kommunikasiya texnologiyalarni keng qo'llash;

fanlarni tanlash imkoniyatini ta'minlagan holda Yevropa kredit tizimini (European Credit Transfer and Accumulation System) joriy etish, shu jumladan talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning xalqaro shartli birliklarini (kreditlar) o'tkazish va jamlash tizimini qo'llagan holda o'quv jarayonini tashkil etish;

Universitetning professor-o'qituvchilar tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan mustahkamlash;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, iqtisodiyotning tegishli sohalari hamda boshqa tashkilotlarda amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga keng jalb etish, ularning malakasini oshirishda samarali tizimni

yaratish, xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim, tadqiqot muassasalarining yuqori malakali mutaxassislarini o'quv, ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va o'tkazish uchun jalb etish;

tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv majmualarini, qo'llanmalarni yaratish va ularni o'quv jarayonlariga tatbiq etish;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) amalga oshirish, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qilish;

milliy iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari bo'yicha ustuvorlikka ega bo'lgan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va natijalarini amaliyotga tatbiq qilish;

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish va bu ishlarga talabalarni jalb etish;

«HEMIS» platformasini joriy etgan holda ochiq, shaffof, sub'yektivlik va suiiste'molchiliklardan xoli bo'lgan ta'lim muhitini yaratish;

talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy, siyosiy madaniyatini va huquqiy ongini oshirish bo'yicha samarali tizimni yaratish, ularda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, korrupsiyaga murosasizlik tuyg'usini shakllantirish hamda rivojlantirish.

11. Universitet o'z vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat ta'lim standartlari asosida mamlakatda o'tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va zamonaviy xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan yuqori malakali iqtisodiyotning tegishli sohalari bo'yicha kadrlarni tayyorlashni tashkil etadi;

amaliy ish tajribasi, huquqiy va siyosiy madaniyati, kasbiy va pedagogik mahoratiga ega yuqori malakali kadrlarni ta'lim jarayoniga keng jalb etish bo'yicha choralarni ko'radi, shuningdek, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlaydi, yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish, ratsionalizatorlik faoliyati va startap ekotizimini rivojlantiradi;

o'quv jarayonini ta'lim berishning kredit-modul tizimi va innovasion o'qitish usullarini qo'llagan holda umume'tirof etilgan xalqaro ta'lim standartlari va talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda talabalarda iqtisodiyotning tegishli sohalari bo'yicha tizimli tahlil qilish qobiliyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari asosida olib boradi;

talabalarning mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, o'quv reja va dasturlar hamda o'quv-metodik materiallarni o'quv jarayonida qo'llaydi;

o'quv jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng qo'llash, talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni global axborot va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi;

professor-uqituvchilar tarkibi mehnatini normalashtirishni faqat o'quv tushdagi tadbirlarga asoslangan holda mustaqil amalga oshiradi hamda pedagogik xodimlar tomonidan ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik, ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni bajarishni rag'batlantiradi;

Universitet tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlar natijalarini o'quv rejalari va ta'lim dasturlariga joriy etish uchun fanlarni o'qitish sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy va o'quv-uslubiy materiallar ishlab chiqadi;

tizimli asosda pedagog va ilmiy xodimlarni malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, talabalarning akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha yetakchi xorijiy ilmiy-ta'lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi;

ijobiy xalqaro tajribani kengroq qo'llash, shu jumladan, talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar)ni o'tkazish va jamlash tizimini qo'llaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etadi, ularning samaradorligini oshirish va tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga keng joriy etish, oliy ta'lim, fanni qo'llash amaliyotining o'zaro integrasiyasini ta'minlaydi;

o'qitishning kredit-modul tizimini va talabalar bilimni baholash usullarini takomillashtirib, o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalarini keng qo'llaydi hamda o'quv bazasini takomillashtirib boradi;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini doimiy amalga oshirib boradi;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) mustaqil amalga oshiradi, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qiladi;

falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini olish uchun dissertasiya ishlarini zamonaviy talabalar, iqtisodiy amaliyotning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

o'z oldida turgan vazifalarni bajarish maqsadida zamonaviy o'quv va moddiy-texnik bazani yaratadi, o'quv, ilmiy-tadqiqot bo'linmalarini, kafedralarni o'qitishning zamonaviy texnik vositalari, axborot kommunikasiya tizimlari va dasturiy majmualari bilan ta'minlaydi;

O'zbekistonning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qodir mutaxassislarni tayyorlashda yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish hamda rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratadi;

talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, tarbiyalashning turli shakl, usul va vositalari orqali talabalarni jamiyatning to'laqonli a'zosi,

vatanparvar, vijdonan va halol mehnat qiluvchi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun kompleks chora tadbirlarni amalga oshiradi;

talabalar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy istiqlol g'oyasi va mustaqillik mafkurasini shakllantirish, talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga ko'maklashish, yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik va fidoiyluk tuyg'ularini, ularning dunyoqarashini shakllantirish choralarini ko'radi;

ma'naviy qadriyatlar va milliy madaniyatni keng targ'ib qilish, kitobxonlarni ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, ularni milliy va jahon madaniyati durdonalariga qiziqishini oshirish hamda dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshiradi;

Universitet xalqaro reytingi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chet el fuqarolari uchun ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi;

Axborot-resurs markazini huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mazmundagi bosma va kitob mahsulotlari hamda o'quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, jumladan xorijiy adabiyotlar fondi, o'qitishning texnik vositalari, shuningdek, global axborot-huquqiy va ta'lim resurslarini muntazam yangilab borishni ta'minlaydi.

III. Universitetning talabalari, tinglovchilari va izlanuvchilari

a) Talabalar:

12. Universitetga talabalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshiriladi.

Universitetga qabul barcha uchun (grant, to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonlarda eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriyentlar test ballari reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar. Qonunchilikka muvofiq test sinovlarisiz muayyan imtiyoz asosida ham o'qishga qabul qilish o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Amaldagi qonunchilikqa asosan xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qiladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 sentyabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta'limni olish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq oliy ma'lumotiga ega bo'lgan shaxslar Universitetga ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish uchun to'lov-kontrakt (shartnoma) asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish uchun abituriyentlar qabulini Universitet qabul komissiyasi amalga oshiradi.

Qo'shma ta'lim dasturlari asosida kirish sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan hamda to'lov-kontrakt kvotalari doirasida to'lov-kontrakt shartlarini bajargan

abituriyentlar o'qishga qabul qilinish huquqiga egadirlar.

Universitet rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxs universitetning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi hamda reyting daftarchasi bepul beriladi.

13. Talabalar quyidagi huquqlarga ega:

fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;

universitet axborot resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;

bepul maslahatlar va tavsiyalar olish;

auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartibda bepul foydalanish;

ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta'lim muassasasi, dekanat va kafedra raxbariyatiga bildirishga va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;

universitet va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;

ilmiy tadqiqot ishlarining barcha turlarida, ilmiy konferensiyalar, simpoziumlarda ishtiroq etish va ularning natijalarini nashr etishga va bu haqda axborotlar berish;

universitetda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashish;

o'qishdan tashqari vaqtlarda ma'naviy-ma'rifiy, obodonlashtirish, ko'klamzorlashtirish va boshqa qonunchilikka zid bo'lmagan jamoat ishlarida ishtiroq etish;

o'qishdan bo'sh vaqtlarida universitetning o'zida, shuningdek, boshqa joylarda mehnat qonunchiligiga muvofiq ishlash;

yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida akademik almashuvida ishtirok etish.

Talaba sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlagan ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan qonunchilik xujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanishi mumkin.

Talaba o'z huquqlarini suiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

14. Talabalarining majburiyatlari quyidagilar:

o'quv reja va dasturlar talablarini belgilangan muddatlarda bajarish hamda bilimlarni egallash;

mazkur Ustav, Universitet ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq kodeksi, Universitet Talabalar turar joyi ichki tartib-qoidalariga va Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga rioya etish;

Universitet binolari va uning boshqa mol-mulkini asrab-avaylash, to'lov-kontrakt bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish;

Vatanga va xalqiga halol xizmat qilishga tayyor, yuqori bilimli mutahassis bo'lib yetishish uchun fidokarona bilim olish o'z kasbiy salohiyatini shakllantirish va takomillashtirish;

ta'lim olish jarayonida jamiyatning ahloqiy prinsiplariga, ma'naviy qadriyatlarimizga, qonun talablariga, o'zaro munosabatlarning yuksak talablariga javob beruvchi qoidalariga qat'iy amal qilish;

tanlagan ihtisosligi bo'yicha chuqur nazariy bilim olish, bo'lg'usi kasbi bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish;

o'quv jarayoni talablariga bo'ysunishi, o'quv mashg'ulotlarini uzrli sababsiz qoldirmaslik, darslarga kech qolib kelmaslik, dars mashg'ulotlari yakunlanmasdan avval ketib qolmaslik;

ta'lim jarayoni bilan bog'liq vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, o'qituvchilarning fanni o'zlashtirish bilan bog'liq topshiriqlarini o'z vaqtida va talab darajasida bajarish, mashg'ulotlarga zarur o'quv qurollari bilan kelish;

tegishli kafedra va dekanat bilan mustahkam aloqada bo'lish, dekanat rahbariyatining qonuniy topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish;

bilimlarni egallashda tashabbus va g'ayrat ko'rsatish, loqaydlikka yo'l qo'ymaslik;

barcha bilan hushmuomalada bo'lish;

Universitet mol-mulkiga ehtiyotkor va tejamkor munosabatda bo'lish, ularga qasddan yoki ehtiyotsizlikdan ziyon yetkazmaslik, ziyon yetkazilgan taqdirda moddiy zarar o'rnini o'rnatilgan tartibda qoplash, moddiy ashyolarni auditoriyadan yoki binodan tashqariga ruxsatsiz olib chiqmaslik;

bino ichida, yo'laklarda, auditoriyalarda sanitariya qoidalariga rioya qilishi, ifloslantirmasligi, alkogol, psixotrop moddalar va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaslik;

kiyinish madaniyatiga rioya qilish, xususan tashqi ko'rinishi va yomon hulq-atvori bilan boshqalardan ajralib turmasligi, ahloq-odob normalariga so'zsiz bo'ysunishi;

o'quv mashg'ulotiga kelmagan holatda (shu jumladan, kasalligi tufayli) uch kundan kechikmasdan bevosita o'zi yohud biriktirilgan tyutori orqali dekanatni tegishli ravishda, xususan yozma tarzda xabardor qilish, qatnashmaslik sabablarini ko'rsatish;

xorijiy tashkilotlar grantlarida qatnashgani taqdirda bu haqda fakultet dekanini xabardor qilish, grant bilan bog'liq holda chet elga jo'nab ketishdan avval o'rnatilgan tartibda ruxsat olish;

o'z ilmiy, ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-siyosiy saviyasini muntazam oshirib borishi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi islohotlar va yangilanishlardan xabardor bo'lish;

o'quv intizomiga, Universitet kengashi qarorlari, rektor buyruqlari hamda ta'lim tizimiga doir normativ-huquqiy hujjatlarda quyilgan maqsad va vazifalarga, shuningdek, o'zining majburiyatlariga rioya etish.

Talabalarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

15. Universitet hududida talabalarga quyidagilar ta'qiqlanadi:

Alkogol, psixotrop moddalari va tamaki mahsulotlarini tarqatish va iste'mol qilish;

milliy, irqiy, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday shakldagi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib qilish;

Universitet binolari va hududidagi moddiy-texnik, boshqa mol-mulkka zarar yetkazish;

o'qish vaqtida Universitet ma'muriyati ruxsatisiz chet el davlatlariga borish.

16. O'qish davrida o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalar Universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari hisobiga hamda Universitetning xorijiy hamkorlari bilan shartnomalari asosida yetakchi xorijiy ta'lim muassasalariga talabalarning aqademik almashinuvi doirasida o'qishga yuborilishi mumkin.

Talabalarning akademik almashinuvi ta'minlash bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Universitetda xorijiy mamlakatlarning talabalar ham o'z o'qishini davom ettirishi mumkin.

17. Davlat granti va to'lov-kontrakt asosida o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan shaklida ta'lim olayotgan talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorda stipendiya bilan ta'minlanadilar (xorijiy talabalar bundan mustasno).

Talabalar tegishli normativ-huquqiy xujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari va Universitetning maxsus stipendiyalarini olish huquqiga egadirlar.

18. Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish, oilasining betob a'zosini (otasi, onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, turmush o'rtog'i, farzandi) parvarish qilish uchun talabaga akademik ta'til berilishi mumkin. Ushbu ta'tilni berish tartib-qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 iyundagi 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalariga akademik ta'til berish to'g'risida"gi Nizomda belgilangan.

19. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq kunduzgi o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan vaqti davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkoni beriladi.

20. Universitetning Talabalar turar joyi sig'imidan kelib chiqqan holda muhtoj talabalar, universitet talabalar turar joylaridan sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan ta'minlanadi.

Talabalar turar joyi uchun to'lov talabalar turar joylarida kommunal-maishiy xizmatlar uchun to'lovlarni inobatga olib, universitet Kengashi tomonidan belgilanadi.

Turar joyga muhtoj talabalar mavjud bo'lgan holda, universitetning talabalar turar joylari maydonidan boshqa maqsadlarga foydalanish (ijaraga berish, boshqa kelishuvlar)ga ruxsat etilmaydi.

21. Universitetdan chetlashtirilgan talaba O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari asosida qayta o'qishga tiklanish huquqiga ega.

Universitetning talabalari belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishlarini ko'chirish (o'qishga qayta tiklanish) huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyatini olib borish uchun lisenziyaga ega bo'lmagan nodavlat oliy ta'lim muassasalari va boshqa mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarining filiallari (markazlar, bo'limlar, o'quv-maslahat punktlari va boshqalar)dan talabalarni Universitetga o'qishini ko'chirish (o'qishga tiklash) taqiqlanadi.

Talabalar o'qishini bir oliy ta'lim muassasasidan boshqasiga ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi (bundan chet el fuqarolarining o'qishini xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan Universitetga ko'chirish mustasno).

22. O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o'qish vaqti hisobidan ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish man etiladi.

23. Talaba o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni buzgani taqdirda unga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari ko'riladi: hayfsan va talabalar safidan chetlatish.

24. Talaba muassasadan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

a) o'z xohishiga binoan;

b) o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;

v) o'quv intizomini va oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalari hamda odob-axloq qoidalarini buzganligi uchun;

g) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

d) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun);

ye) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

j) sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);

z) vafot etganligi sababli.

25. Belgilangan muddatlarda fanlarni o'zlashtira olmagan (akademik qarzdor bo'lgan) talaba universitet rektori buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi. Akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talaba to'lov-kontrakt asosida o'qishini quyi kursdagi o'quv semestri boshidan boshlashi mumkin.

Universitetda kredit-modul tizimida o'qiyotgan talabalariga nisbatan Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizomning 8-bobi qoidalari qo'llaniladi.

26. Universitet ma'muriyati tashabbusi bilan ushbu Ustavning 24-bandi «d» kichik bandiga ko'ra talabalarni o'qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining yozma roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan talabalar uchun) amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu Ustavning 24-bandi

«v)» kichik bandiga ko‘ra chetlashtirilayotgan holda, universitetning Yoshlar ishlari agentligi faollari tashkiloti bilan ham kelishilishi mumkin.

27. Intizomiy jazoga tortilayotgan talaba o‘ziga qo‘llanilgan jazo chorasining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat bilan Universitet rektoriga, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yoki boshqa vakolatli tashkilotlarga murojaat etishi mumkin.

Talabaga nisbatan qo‘llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma‘lumot uning shaxsiy yig‘ma jildida saqlanadi.

Talaba universitetdan chetlashtirilganda, unga shaxsiy hujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma‘lumotnoma topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig‘ma jildda saqlanadi.

Intizomiy jazo choralar talabalarning kasallik yoki ta‘tilda bo‘lgan vaqti hisobga olinmagan holda xatti - harakat aniqlangandan so‘ng bir oydan va hatti – harakat sodir etilganidan so‘ng olti oydan kechiktirilmay qo‘llaniladi. Talabalar kasallik paytida, akademik ta‘til yoki homiladorlik va tug‘ish holati bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘til paytlarda talabalarga intizomiy jazo choralarini ko‘rish taqiqlanadi.

Talaba kasal bo‘lganligi o‘zi yoki uning ota-onasi tomonidan yozma ariza bilan bevosita dekanatga, odatda, bir haftadan kechiktirilmasdan ma‘lum qilinadi va tibbiy ma‘lumotnoma aslini taqdim etadi.

b) Tinglovchilar:

28. Universitet huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida va Respublika til o‘rgatish markazida o‘qiyotgan shaxslar tinglovchilar hisoblanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi, tinglovchilarni o‘qitish shartlari va huquqlari qonun xujjatlariga muvofiq tegishli normativ-huquqiy xujjatlar bilan belgilanadi.

v) Tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilar:

29. Universitetda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun tashkil etilgan oliy ta‘limdan keyingi ta‘limda o‘qiyotgan fuqaro tayanch doktorant va doktorant hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun tashkil etilgan oliy ta‘limdan keyingi ta‘limda o‘qiyotgan fuqaro mustaqil izlanuvchi hisoblanadi.

Tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilarni o‘qitish shakllari va muddatlari, ularni qabul qilish hamda faoliyatini tashkil etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

IV. O‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-uslubiy ishlar

30. Universitet mutaxassisligi bo'yicha quyidagi ta'lim turlari asosida o'qitishni amalga oshiradi:

oliy ta'lim;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

Universitet oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Universitetda umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek yangi taxrirdagi "Ta'lim to'g'risida" Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumotli ta'lim oladi.

Universitet ta'limning asosiy ta'lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakunlari bo'yicha ta'lim yo'nalishi bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Magistr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakunlari bo'yicha tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo'yicha «magistr» darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki tanlangan ta'lim yo'nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta'lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan mutaxassisligi bo'yicha ishlash huquqini beradi.

Oliy ta'limning turli bosqichida asosiy ta'lim dasturlari bo'yicha dastlabki ta'lim olish, ikkinchi oliy ta'lim olish sifatida qaralmaydi.

31. Universitetda ta'lim jarayonini tashkil etish, universitet tomonidan ishlab chiqilgan va kasbiy standartlar asosida tasdiqlangan o'quv rejalar, o'quv dasturlari, malaka talablari, universitet rektori (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) tomonidan tasdiqlanadigan yillik kalendar o'quv jadvali hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim jarayonini maqsadli yo'naltirish yo'li bilan tashkil etish, ya'ni ta'lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yo'li bilan universitet talabalariga oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun zaruriy sharoitlarini yaratib berilishi lozim.

32. Universitetda o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma'ruza, konsultasiya, seminar, amaliy mashg'ulot, yakka mashg'ulot, nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyihasi (kurs ishi), bakalavrluk bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertasiyasi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqalik (tanaffussiz qo'shma ma'ruza) akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o'zbek, rus, ingliz, ispan, nemis, fransuz, xitoy, koreys va boshqa sharq tillari hisoblanadi.

33. Universitetda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda olib boriladi.

Universitetning asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida ta'lim olishning barcha shakllari uchun o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan davlat ta'lim standarti qo'llaniladi.

34. Universitetda o'quv yili ikki semestrda bo'linadi va uning har birida talabalarining o'zlashtirishi kurslar kesimida 5 baholik (2020/2021 o'quv yiliga qadar qabul qilingan talabalar uchun) va kredit-modul tizimi (2020/2021 o'quv yilidan boshlab qabul qilingan talabalar uchun)da olib boriladi.

Fanlarni o'zlashtirgan talabalarni kursdan kursga o'tkazish fakultet dekanining tavsiyasiga binoan rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga shartli o'tkazish mumkin emas.

Universitetning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" (ro'yxat raqami 3069, 2018 yil 26 sentyabr) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq tartibga solinadi.

Universitetda bitiruvchilarning yakuniy attestasiyasi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestasiyasi to'g'risidagi Nizom (ro'yxat raqami 1963, 2009 yil 5 iyun) qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

35. Universitetda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

36. Universitetda oliy ta'limdan keyingi ta'lim doirasida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar mutaxassisliklari ro'yxati»ga muvofiq ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, shuningdek fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertasiyalar tayyorlash va himoya qilish uchun oliy ta'lim muassasasiga doktorant va mustaqil izlanuvchilarni biriktirish ishlari amalga oshiriladi.

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzliksiz malakasini oshirish

tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son qaroriga muvofiq kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha kasbiy ta'lim dasturlari amalga oshiriladi.

38. Universitet huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida Attestasiyadan muvaffaqiyatli o'tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qat'iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

39. Universitetda Kengash tomonidan tasdiqlangan mavzular, rejalar bo'yicha bajariladigan ishlarning sifati hamda mehnat xavfsizligi ta'minlangan holda talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim izlanuvchi va mustaqil izlanuvchilar keng jalb etilib, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlarni olib boriladi.

V. Universitetning professor - o'qituvchilari tarkibi, o'quv-yordamchi va ma'muriy - xo'jalik xodimlari (personali)

40. Universitetda professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar, muhandislik - texnika, ma'muriy - xo'jalik, ishlab chiqarish, o'quv - yordamchi va boshqa xizmatchilar lavozimlari mavjud.

Professor-o'qituvchilar tarkibiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent) va o'qituvchi-stajor lavozimlari kiradi.

41. Professor-o'qituvchilar tarkibidagi lavozimlarga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qaroriga muvofiq tegishli kafedraning kengaytirilgan ochiq majlisida pedagog kadrlar va jamoatchilik kengashining a'zolari ishtirokida sinov darsi o'tkazish natijalari bo'yicha ushbu majlisning tavsiyasiga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy talim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq tanlov asosida mehnat shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi.

42. Universitetning professor-o'qituvchilar bilan mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

43. Professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

belgilangan tartibda oliy ta'lim muassasasi va fakultet Kengashlariga saylash va saylanish;

Universitetning faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

Universitetning axborot-resurs markazi, o'quv va ilmiy bo'linmalarning xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'limlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish;

o'qitishning uslub va vositalarini tanlash, o'quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

Universitet 43 rahbariyatining buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;

qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;

xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;

nazariy bilimlarini amaliy tajribasini, ilmiy tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;

talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, fundamental, amaliy va innovatsiya loyihalari, xorijiy ilmiy loyihalar hamda xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;

darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, monografiya va ilmiy maqolalar yozish, ixtiro uchun patent, EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;

tasdiqlangan rejaga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy-tadqiqot ishlarining muhokamasida ishtiroq etish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, ilmiy ishlar natijalarini nashr etishga tavsiya berish;

ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashda qatnashish;

xorijiy yetakchi olimlar, ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirishda ishtiroq etish;

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

44. Professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, mehnat va texnologiya intizomi, universitet Ustavi, Ichki mehnat-tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksiga va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga qat'iy rioya qilish;

o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va o'qituvchilik sha'niga dog' tushirmaslik;

ish jarayonida muloqat qiladigan Universitet xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan xushmuomalada bo'lish;

ish beruvchining qonuniy buyruq va farmoyishlarini bajarish, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xususan:

a) o'quv yuklamalari hajmini, o'quv-uslubiy, ilmiy, o'quv-tashkiliy ishlarni tasdiqlangan shaxsiy reja asosida bajarish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etish;

b) ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma tayyorlash, o'quv adabiyot, ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish, ixtiro uchun patent, EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;

v) ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashda qatnashish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

g) tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bevosita ishtirok etish, shu jumladan darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashish;

d) Universitet kengashi tomonidan tasdiqlangan kafedrada bajariladigan ilmiy mavzular doirasidagi tadqiqotlarda ishtirok etish;

e) o'z malakasini uch yilda bir marta oshirish;
mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalariga rioya qilish;
universitetning mol-mulkini avaylash, undan oqilona foydalanish;
ish beruvchiga bevosita o'zining aybi bilan yetkazilgan haqiqiy moddiy zararni qoplash;

universitetning jamoatchilik ishlarida qatnashish;
pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta'minlash;
zamonaviy globallashuv va demokratiya sharoitida ta'lim oluvchilarning tanlagan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha yuksak kasbiy tayyorgarligini, mehnatga bo'lgan qobiliyatini shakllantirish;

chet tili va axborot texnologiyalaridan savodxonligini oshirib borish asosida kamida bir yoki ikkita xorijiy tilni bilishi;

ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish;

“Ustoz-shogird” tizimida ishtirok etib, o'ziga biriktirilgan shogirdlar bilan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;

o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnak bo'lish;

kiyinish madaniyatiga rioya etish;

respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish;

Universitet, fakultet, kafedra tomonidan tashkil etiladigan madaniy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish;

o'zi o'qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;

darslarni yuqori saviyada o'tish;

fan yo'nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;

har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar rejasi va reyting nazoratlari jadvalini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlatish;

reyting tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish;

talabalar bilimni xolisona baholash;

yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;

ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratini oshirish;

talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

o'zining mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish korxonasi va muassasalarda mavjud muammolar haqida ma'lumot va tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ishlab

chiqarish jarayonida mavjud muammolarning yechimiga oid tadqiqot mavzusiga ega bo'lish;

olib borayotgan tadqiqot mavzusi asosida o'z yoki hammualliflikdagi ishlanma va texnologiyalarga ega bo'lishi;

mutaxassisligi bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida tegishli muddatlarda malaka oshirib borishi yoki stajirovkadan o'tishi;

oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish.

45. Universitet professor-o'qituvchilar tarkibini uch yilda kamida bir marotaba malakasini oshirish kafolatini ta'minlaydi.

46. Universitetning ma'muriy-xo'jalik, muhandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xodimlarining huquq va majburiyatlari oliy ta'lim muassasasining Ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksi, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

VI. Universitetning tuzilmasi

47. Universitet mustaqil ravishda tarkibiy tuzilmasini shakllantiradi.

Universitetning tuzilmasiga universitet tomonidan tasdiqlanadigan va qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'lgan fakultetlar, kafedralar, ilmiy va o'quv laboratoriyalari, boshqarmalar, bo'limlar, markazlar kiradi.

48. Universitet huzurida yuridik shaxs hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda xorijiy tillar" nomli kasbga oid elektron jurnal va internet portalini tashkil etish to'g'risida" 2013 yil 16 oktyabrdagi 283-son Qarori asosida tashkil etilgan «O'zbekistonda xorijiy tillar» elektron jurnal va internet portalini tahririyati» davlat muassasasi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'n ikki yillik ta'limga to'liq o'tish hamda Toshkent shahridagi yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar ob'yektlarini 2007-2008 o'quv yiliga o'z vaqtida tayyorlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2007 yil 1 maydagi PQ-633-son qarori asosida tashkil etilgan Universitet qoshidagi akademik lisey;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi PF-5812-son Farmoni asosida tashkil etilgan:

Sherobod agrosanoat texnikumi;

Marg'ilon ko'p tarmoqli texnikumi;

Xo'jayli ko'p tarmoqli texnikumi faoliyat yuritadi.

Universitet bajariladigan ishlarning hajmi va shakllari asosida xodimlarni ro'yxatini mustaqil ravishda belgilaydi, xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish va tugatish, ish bo'yicha majburiyatlarni taqsimlaydi.

Universitetning tarkibida turli tarkibiy birliklar bo'lishi mumkin, ular belgilangan tartibda tasdiqlangan Nizomlari asosida ta'lim, ilmiy va boshqa faoliyatni amalga oshiradi (filiallar, vakolatxonalar, kafedralar huzurida jamoatchilik asosida tashkil etilgan ilmiy tadqiqot markazlari (institutlar), ixtisosliklar bo'yicha ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, xalqaro reytinglarga kirish

bo'yicha tuzilgan ishchi guruhlar (QS), Ilmiy innovasion ishlanmalarni tijoratlashtirish faoliyati bo'yicha xizmat servislari ko'rsatuvchi (o'quv, tarjima va tahrir, forsayt, turizm) markazlari, ilmiy-innovasion ishlanmalarni va o'quv adabiyotlarni tijoratlashtirish, to'garak kurslari, innovasion-texnologik, o'quv metodik bo'limlar, o'quv va amaliy mashg'ulotlari ustaxonalari, o'quv maydonchalari, o'quv-ilmiy amaliyot uchun ilmiy asosli bazalar, o'quv va namoyish markazlari, axborot resurs markazlari, axborot texnologiya markazlari, muzeylar, bosmaxona, sport klublari, sport va sog'liqni saqlash markazlari, yotoqxonalar, psixologik va ijtimoiy pedagogik xizmatlar, ularga ehtiyoji bo'lganlarni adaptatsiya va rehabilitatsiya qilish markazlari, bog' va lokal normativ hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa tarkibiy bo'linmalar).

Universitet tarkibiy bo'limlari yuridik shaxs hisoblanmaydi.

Universitet tarkibiy bo'limlarining huquqiy maqomi, maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan tegishli Nizomlar va qoidalar bilan belgilanadi.

VII. Universitetni boshqarish

49. Universitetni boshqarish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik va oliy ta'lim muassasasining Kengashi orqali jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

50. Universitetni bevosita boshqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son qaroriga muvofiq, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining tavsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda, Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Universitet rektori tomonidan amalga oshiriladi.

Rektor Universitet faoliyatiga, shuningdek, Ish reglamenti, Ichki tartib qoidalar, Odob-axloq kodeksi, Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to'la mas'uldir.

Rektor O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga ko'ra, Universitet nomidan ishonchnomasiz ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, Universitetning mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida Universitetning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha farmoyishlar beradi.

51. Universitet rektori vakolati doirasida:

Universitet faoliyatiga, shuningdek, Ish reglamenti, Ichki tartib qoidalar, Odob-axloq kodeksi, Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to'la mas'uldir;

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga ko'ra, Universitet nomidan ishonchnomasiz ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, Universitetning mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida Universitetning

hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha farmoyishlar beradi;

Universitet faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va Universitetga yuklangan vazifalar va vakolatlarni qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiradi;

prorektorlar vakolatlarini belgilaydi, ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, Universitetning tarkibiy bo'linma rahbarlari vakolatlarini, ularning tarkibiy bo'linmalar faoliyati uchun javobgarligini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyruqlari, Hay'at va Universitet Kuzatuv kengashi qarorlarini amalga oshirishni tashkil etadi;

Universitet tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi, kafedralarni tashkil etadi va tugatadi;

Universitetning barcha xodimlari va talabalari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

Universitet tarkibiy bo'linmalari rahbarlarini va fakultet dekanlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi (yuqori turuvchi idoralar nomenklaturasidagi lavozimlar bundan mustasno);

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishgan holda Universitet huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi, akademik lisey va texnikumlar direktorlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

Universitet xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida xodimlarga ustamalar va moddiy rag'batlantirishning boshqa turlari miqdorlarini belgilaydi;

zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalana oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan professor-o'qituvchilarni tanlash maqsadida Universitet hamda professor-o'qituvchilar o'rtasida bir yillik muddatli mehnat shartnomalari tuzish amaliyotini joriy etadi;

Universitetning tashkiliy va moliyaviy faoliyati masalalarini belgilangan tartibda hal qiladi;

Universitetning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish bo'yicha belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi;

Universitetda tashkil etiladigan yakuniy davlat attestasiya komissiyasi raislarini tasdiqlaydi;

Universitetning shtat jadvallari va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

Kasaba uyushma qo'mitasi va Universitet kengashi bilan kelishilgan holda Universitetning ichki tartib qoidalarini belgilaydi;

amaldagi qonunchilik hujjatlari va oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyruqlariga zid tarzda qabul qilingan buyruqlarini bekor qiladi;

Universitet xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etadi, o'rnak ko'rsatgan Universitet xodimlarini unvonlar berish va

O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risida takliflar kiritadi;

professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqadi;

Universitetning tuzilmasini tasdiqlaydi va shtat birliklari sonini belgilaydi;

Universitet qabul komissiyasi raisi va mas'ul kotibini, shuningdek, a'zolari, imtihonlar jadvali, imtihon olinadigan fanlar dasturlari va baholash mezonlarini tasdiqlaydi;

Universitetda ta'lim oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibini tasdiqlaydi va uni tashkil etadi;

o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshiradi;

Universitet va uning tuzilmasidagi ta'lim muassasalari uchun o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etadi;

ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilaydi va joriy etadi;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan kelishuvlar asosida qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

xorijiy davlat fuqarolarini to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish va masofaviy ta'lim olish shaklida o'qitishni tashkil etadi;

chet el fuqarolarining o'qishini xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan respublika davlat oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish ishlarini amalga oshiradi;

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi barcha turdagi, shu jumladan Universitet va uning qoshidagi akademik liseyning bino va inshootlarini, talabalar turar joylarini qurish hamda ulardan foydalanish bo'yicha kelishuvlarni tuzadi va amalga oshiradi;

ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qiladi;

o'z mablag'lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratadi;

Universitet va uning huzuridagi akademik liseyning iqtidorli o'quvchilariga stipendiya va grantlar ajratish huquqiga ega;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Rektorga ilmiy va ilmiy-uslubiy rahbarlikdan tashqari boshqa haq to'lanadigan rahbarlik lavozimida o'rindoshlik asosida ishlashga ruxsat etilmaydi.

52. Universitet faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun rektor (Kengash raisi) boshqaradigan Universitet Kengashi (keyingi o'rinlarda – Kengash) tashkil etiladi.

Kengash Universitetining doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organi hisoblanib, Universitetning tashkiliy-boshqaruv, o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-innovasion, ma'naviy-ma'rifiy va moliya-xo'jalik faoliyatining tezkor masalalari bo'yicha kollegial qarorlar qabul qiladi.

Kengash tarkibi rektor tomonidan tasdiqlanadi. Kengash to'g'risida nizom va uning reglamenti Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

Kengash tarkibiga prorektorlar, rektorning o'quv ishlari bo'yicha va tadqiqot ishlari bo'yicha assistentlari, fakultet dekanlari, ilmiy kotib, mutaxassislar tayyorlovchi kafedralar mudirlari, ayrim tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, yetakchi professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlar kiradi. Kengash tarkibiga Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik, tashkilot va idoralarning vakillari, yetuk mutaxassislar kiritilishi mumkin.

Kengash qarorlarining ijrosi prorektorlar va boshqa rahbarlar tomonidan ta'minlanadi.

Kengashning asosiy vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Universitet va Kengashning ish rejasini tasdiqlash;

Universitetga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish uchun tanlov o'tkazish;

talabalarining to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;

o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish;

Universitet talabalarining akademik ta'til muddatiga o'qishni eksternat ta'lim shakliga o'tkazish bo'yicha arizalarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlaydi, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash;

Universitet qabul komissiyasi hamda davlat attestasiya komissiyalari faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini tasdiqlash;

bitiruvchilarga nisbatan malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini tasdiqlash;

bakalavriat, magistratura va maxsus dasturlar bo'yicha yakuniy davlat attestasiyasi sinovlarining dasturlari hamda baholash mezonlarini tasdiqlash;

Universitetda yakuniy davlat attestasiyasini o'tkazish shaklini belgilash;

Universitetning ilmiy-pedagogik salohiyati, uning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini belgilash, mehnat bozoridagi ehtiyojdan kelib chiqib yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish;

talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati oliy ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim xizmatlari bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqib, biroq tegishli yo'nalish bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilash;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari kesimida qabul shartlarida to'lov-kontrakt qiymati tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilangan holda qo'shimcha qabul parametrlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalariga nomzod talabalarni tavsiya etish;

talabgorlarni dosent va professor ilmiy unvonlariga tavsiya etish bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga taqdimnoma kiritish;

tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik institutiga qabul natijalarini tasdiqlash;

dissertatsiya mavzulari bazasi, tayanch doktorantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari, ilmiy rahbarlari va ilmiy maslahatchilarini tasdiqlash;

falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini o'qish muddati tamom bo'lishidan kamida 6 oy oldin himoya qilganlarga, shuningdek, ularning ilmiy rahbarlari va konsultantlariga mukofot belgilashni tasdiqlash;

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;

magistrlik dissertatsiyasi va bitiruv malakaviy ishi mavzulari hamda davlat attestatsiya komissiyasi hisobotlarini tasdiqlash;

chin yetim, yetim, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni Universitet Talabalar turar joyi to'lovlaridan ozod qilish masalasini ko'rib chiqish;

Universitet prorektorlari, fakultet dekanlari, shuningdek, kafedra mudirlari va boshqa tarkibiy bo'linma rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun Maxsus jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek, har oylik ustamalarni o'rnatish mezonlarini belgilash;

talabalar turar joyi to'lovlari miqdorlarini belgilash;

o'quv adabiyotlarini nashr etishga tavsiya etish;

o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish.

Kengash kollegial muhokama qilish talab etiladigan, Universitet faoliyatiga taalluqli bo'lgan boshqa har qanday masalani ham ko'rib chiqish va uning yuzasidan qaror qabul qilish huquqiga ega.

Shuningdek, Kengash Universitetning Kuzatuv kengashi tomonidan berilgan vakolatlarni amalga oshiradi.

53.Universitetda falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini beruvchi Ilmiy kengashlar faoliyati tashkil etiladi.

54.Universitetda Kuzatuv kengashi tashkil etiladi, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tasdiqlanadi. Kuzatuv kengashi to'g'risida Nizom Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Kuzatuv kengashi o'z vakolatlarini Universitet kengashiga topshirishiga, shuningdek, Universitet kengashiga kiruvchi vakolatlarni o'z zimmasiga olishga haqli.

55.Kuzatuv kengashining asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat:

Universitetning uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o'rinlaridan joy olish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

Universitetning o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

Universitet oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati bo'yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o'rganish hamda axborotini eshitish;

Universitetning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o'tkazish uchun qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

Universitetni rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish;

ilm-fan va innovasiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, Universitet innovasion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalishlarini belgilash;

Universitet rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

Universitet hamda uning huzuridagi ta'lim va ilmiy muassasalarning rahbari va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish tartibini belgilash;

Universitetning byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash;

doktoranturada to'lov-kontrakt asosida o'qish qiymatini belgilash, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish.

magistratura bosqichida ta'limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;

faoliyatining asosiy yo'nalishi ta'lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlantirish bilan bog'liq bo'lgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;

pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotasiyasiga oid tartibni belgilash.

VIII. Jamoat tashkilotlari

56. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son qaroriga muvofiq universitetda samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ishlari agentligining universitetdagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda Jamoatchilik kengashi tashkil etiladi.

Jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari:

ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish;

Universitetga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo'yicha tavsiyalar berish;

talabalarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

Universitetdagi ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va muassasaning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish.

57. Universitetda kasaba uyushmasi va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi.

Professor-o'qituvchilar va xodimlarning mehnat huquqi va manfaatlarini himoyalash kasaba uyushmasi markaziy kengashi hamda ularning universitetda saylangan vakili amaldagi qonunchilik asosida o'z ish faoliyatini olib boradi.

IX. Universitetning moliya-xo'jalik faoliyati va moddiy-texnik bazasi

58. Universitetga ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish va foydalanish maqsadida davlat tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, universitetning pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shuningdek iste'mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan mulklar biriktirilgan.

Universitet Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladigan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan ob'yektlar qatoriga kiritilgan. Universitetga ajratilgan yer uchastkalari muddatsiz bepul foydalanish uchun biriktirilgan.

59. Universitet davlat mulkidan oqilona va samarali foydalanishni, uning yaxlitligi va but saqlanishini ta'minlaydi.

60. Quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

bakalavriat va magistratura talabalari, shuningdek oliy ta'limdan keyingi ta'limning to'lov-kontrakt shakli asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xorijiy fuqarolarni to'lov-kontrakt shakli asosida o'qitishdan Universitet valyuta hisob raqamiga tushadigan xorijiy valyuta mablag'lari;

byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari doirasida o'tkaziladigan grant tanlovlari natijalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovasion tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablag'lar;

pullik kurslarni tashkil etish va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatishdan tushadigan barcha mablag'lar;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va maqsadli badallari;

Universitet faoliyatida amalga oshirilgan ilmiy, o'quv va boshqa innovasion ishlanmalarni tijoratlashtirish, shuningdek Universitetning mol-mulkini ijaraga berishdan, shartnoma asosida qonun hujjatlarida ruxsat berilgan xizmat ko'rsatish orqali tushgan mablag'lar;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar.

61. Universitetda lavozim maoshlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi "Respublika oliy talim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-926-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 164-son qarori va Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. Muassasa xodimiga lavozim maoshi (stavka) o'z funksional vazifalarini hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to'lanadi.

Qo'shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag'batlantirish tadbirlarining hajmini Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-avgustdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarni budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 517-son qaroriga muvofiq Universitet mustaqil, moddiy rag'batlantirish fondi doirasida amalga oshiradi.

Belgilangan mehnat haqi maxsus ishchi guruh xulosasiga ko'ra faqat uni oshirish maqsadida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

62. Universitetda tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan xonalar ajratiladi.

Universitet qoshidagi tibbiyot xonasiga, shuningdek, o'rnatilgan tartibda tashkil etilgan umumiy ovqatlanish tuzilmasiga (oshxona, bufet) isitish, yoritish va suv ta'minoti bilan taminlangan xonalar ajratiladi.

Universitetning tegishli binolarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta'minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

63. Universitetning asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan obektlarini belgilangan tartibda sotish yoki buzish quyidagi shartlardan biri mavjud bo'lganda amalga oshiriladi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlariga muvofiq sotiladigan ob'ektlar bundan mustasno:

belgilangan xizmat muddatining tamom bo'lishi (to'liq yaroqsiz deb topilishi);

ularning jismoniy eskirishi, avariylar, tabiiy ofatlar, foydalanishning normal sharoitlari buzilishi oqibatida yaroqsiz holga kelishi;

ma'naviy eskirishi;

muassasaning bino qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, modernizatsiya qilinishi va qayta tashkil etilishi munosabati bilan bo'shab qolishi.

64. Universitetda, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida professor-o'qituvchi va xodimlarga ustamalar hamda moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi (To'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'larning 30 foizi miqdorida) tashkil etiladi.

Maxsus jamg'arma mablag'lari shtatdagi boshqaruv, professor-o'qituvchilar, ilmiy, o'quv-yordamchi, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga har oylik ustamalar va moddiy rag'batlantirishning boshqa turlarini o'rnatishga yo'naltirilib, ularning miqdori Universitet Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan tartib (nizom) asosida belgilanadi.

Moddiy rag'batlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi, shuningdek har oylik ustamalarni o'rnatish mezonlari Universitet Kuzatuv kengashi tomonidan mustaqil belgilanadi.

Universitet xodimlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa moddiy rag'batlantirish va moddiy yordam choralari ko'rsatilishi mumkin.

65. Universitet quyidagi masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi:

asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni (bino va inshootlar hamda o'quv-ilmiy laboratoriya jihozlari bundan mustasno) sotishdan tushgan mablag'larni to'lig'icha o'zlarining rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlash va sarflash;

rivojlantirish jamg'armasiga tushgan barcha mablag'lardan moddiy-texnika bazani mustahkamlashga, o'z xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirishga, faoliyatni samarali tashkil etish bilan bog'liq boshqa tadbirlarga sarflash ulushini belgilash;

o'quv jarayoniga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali o'qituvchi va mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib belgilash (qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlardan kam bo'lmagan miqdorda);

xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish;

bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;

avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilash;

saqlash xarajatlari, vazifa va majburiyatlarni bajarish, o'qitishning innovasion shakl va uslublarini joriy etish hamda xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, dasturiy ta'minotlar, zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalari, o'quv va ilmiy laboratoriyalar hamda sarflanadigan laboratoriya materiallarini, shu jumladan kitoblar, jurnallar, o'quv adabiyotlari xarid qilish va chop ettirish uchun mablag'larni mustaqil sarflash;

Universitet infratuzilmasiga servis xizmatlari ko'rsatishning alohida turlari, jumladan bino va inshootlar, talabalar turar joylari, sport ob'yektlaridan foydalanish, ularni tozalash, ta'mirlash, kompyuter texnikasi va telekommunikasiya tarmoqlarini saqlash va yuridik xizmatlar ko'rsatishni autsorsing shartlarida tashkil etish.

66. Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyot tarmoqlari mutaxassislarining malakasini oshirish va boshqa pullik xizmatlarni joriy etish Universitetning qo'shimcha vazifasi bo'lib xisoblanadi.

67. Universitet ilmiy, o'quv va boshqa innovasion ishlanmalarni tijoratlashtirish, shuningdek shartnoma asosida qonun hujjatlarida ruxsat berilgan boshqa xizmat ko'rsatishi va o'zining ustavida belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Universitet asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni sotish, pullik kurslarni tashkil etish va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish, Universitetning mol-mulkini ijaraga berishdan tushadigan barcha mablag'larni mustaqil ravishda tasarruf qiladi.

68. Universitet o'z faoliyati natijalarining buxgalteriya hisobini belgilangan tartibda amalga oshiradi, moliya va statistika hisobotlarini yuritadi.

X. Universitetning xalqaro faoliyati

69. Universitet qonunchilik hujjatlari hamda mazkur Ustavga muvofiq xorijiy mamlakatlarning ta'lim va ilmiy markazlari, xalqaro jamg'armalar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish huquqiga ega.

Universitetda chet el fuqarolarini o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasi ilmiy-pedagogik xodimlarining xorijiy mamlakatlarda pedagogik va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari va xorijiy davlatlarning ta'limini boshqarish bo'yicha tegishli organlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar, shuningdek Universitetning xorijiy davlatlarning ta'lim va ilmiy markazlari, xalqaro jamg'armalar va boshqa tashkilotlar bilan qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalari (bitim, memorandumlari), chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzilgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

70. Xalqaro faoliyatni amalga oshirishda Universitet quyidagi huquqlarga ega:

Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda ta'lim sohasidagi xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlariga a'zo bo'lish;

xorijiy davlatlarning ta'lim va ilmiy markazlari, tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yuzasidan shartnomalar (bitim, memorandumlar) tuzish;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlaridan yuqori malakali professor-o'qituvchilar va olimlarni dars mashg'ulotlariga, hamkorlikda o'quv adabiyotlari va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga jalb etish;

xorijiy hamkorlik ishtirokida Universitet tarkibiy bo'linmalari (qo'shma fakultetlar, qo'shma ta'lim dasturlari, markazlar va boshqa bo'linmalar)ni qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda tashkil etish;

Universitet professor-o'qituvchilari, xodimlari, doktorantlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, falsafa doktori (PhD) va magistratura dasturlari bo'yicha ta'lim olishlarini ta'minlash;

Universitet talabalarini xorijiy mamlakatlarga stajirovka, amaliyot o'tash, konferensiya va tanlovlarga yuborishni ta'minlash;

Universitet va xorijiy oliy o'quv yurtlari talabalari, tayanch doktorantlari va

doktorantlar, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlari bilan ikki tomonlama o'zaro almashinuv dasturlarini tashkil etish;

xorijiy fuqarolarni belgilangan tartibda Universitetga o'qishga qabul qilish va ularning o'qishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Universitet qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning institutlari va tashkilotlari bilan boshqa yo'nalishlarda ham o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish huquqiga ega.

71. universitet professor-o'qituvchilari va xodimlari hamda talabalarining chet el xizmat safarlari amaldagi qonunchilik xujjatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining tegishli idoraviy normativ-huquqiy xujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida Universitet rektor va prorektorlarining xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishini Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligini xabardor qilgan holda amalga oshiriladi. Bunda Universitet rahbar xodimlari tomonidan xorijiy mamlakatga xizmat safari oldidan asosiy ma'lumotlar, jumladan mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi, safar natijalari yuzasidan esa Universitet kengashiga amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to'g'risida taqdim etilgan hisobot Universitet veb-saytiga joylashtiriladi.

72. Xorijiy safarlarga yuborilgan rahbar xodimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalar (bakalavr va magistr) bajarish lozim bo'lgan reja ishlarini bajarmagan va o'z xatti-harakatlari bilan Universitet sha'niga putur yetkazgan hollarda ularga nisbatan qonunchilik asosida tegishli choralar ko'riladi.

73. Universitet tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlar qonunchilikka binoan mazkur Ustavda belgilangan Universitet faoliyatini moddiy ta'minlash uchun ishlatiladi.

XI. Yakuniy qoidalar

74. Universitet O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagilarga javob beradi:

ta'lim jarayonida o'quv reja va jadvallarga muvofiq ta'lim dasturlari hajmini to'liq bajarmaganligi;

ta'lim jarayoni vaqtida Universitetda ta'lim oluvchilar va xodimlarning hayoti va sog'lig'i;

ta'lim oluvchilar va xodimlarning huquq va erkinliklarining buzilganligi;

amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarmaganligi.

75. Universitet O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

76. Ustav O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

Universitet Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.